SINGAPUR RESPUBLIKASIDA DIPLOMATIK XIZMAT, PROTOKOL VA ETIKET

Absamatov Mirodil,

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

“Xalqaro munosabatlar” ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Tel: 95.701-14-20

Ilmiy rahbar: s.f.f.d ***Javohirxon Sobirov***

Annotatsiya: Ushbu maqolada Singapur Respublikasining diplomatik xizmat, protokol va etiket tizimi tahlil qilinadi. Tadqiqot Singapurning 1965-yildagi mustaqillikka erishganidan buyon shakllantirgan pragmatik tashqi siyosat modeli, Tashqi ishlar vazirligining institutsional tuzilmasi hamda Vena konvensiyalari asosida rivojlangan milliy protokol amaliyotini qamrab oladi. Maqolada davlat tashriflari tartibi, diplomatik akkreditatsiya, imtiyoz va immunitetlar, kiyinish qoidalari, shuningdek konfutsiy qadriyatlari va multietnik an’analarga asoslangan etiket normalarining o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *diplomatik protokol, Singapur tashqi siyosati, kichik davlat diplomatiyasi, diplomatik etiket, Vena konvensiyasi, FOSS, meritokratiya.*

KIRISH

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda kichik davlatlarning o‘rni va imkoniyatlari hamon munozarali masala bo‘lib qolmoqda. 1965-yilda mustaqillikka erishgan, tabiiy resurslari deyarli yo‘q, geografik jihatdan zaif bo‘lgan Singapur shahar-davlati bugungi kunda global diplomatiyaning to‘laqonli va ta’sirchan ishtirokchisiga aylangan. Singapurning xalqaro muvaffaqiyati ko‘p jihatdan diplomatik xizmat, protokol va etiket tizimining puxta tashkil etilganligiga bog‘liqdir. Diplomatik protokol ko‘pincha sof rasmiyatchilik yoki marosimchilik sifatida idrok etiladi; biroq u aslida davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, ishonch muhitini yaratuvchi va milliy manfaatlarni himoya qiluvchi

strategik vositadir. Singapur aynan shu vositadan mahorat bilan foydalangan holda xalqaro maydonda mustahkam o‘rnashdi.

Yuqorida belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, tahlilni Singapur tashqi siyosatining konseptual asoslaridan boshlash maqsadga muvofiq. Zero, diplomatik xizmat va protokol tizimini to‘liq tushunish uchun avvalo davlatning tashqi siyosiy yo‘nalishi, uning ustunliklari va strategik mantig‘i aniq bo‘lishi zarur. Singapur bu borada boshqa kichik davlatlardan tubdan farq qiluvchi o‘ziga xos model yaratganki, aynan shu model keyingi barcha institutsional va protokolga oid qarorlarning poydevori bo‘lib xizmat qilgan.

Singapur tashqi siyosatining asosiy tamoyillari tashqi siyosatning pragmatizm va realistik yondashuviga asoslanadi. U uchta asosiy maqsadni ko‘zlaydi:

1. *Mustaqillik, suverenitet va hududiy yaxlitlikni himoya qilish;*
2. *Zaruriy resurslarga (energiya, oziq-ovqat) kirishni ta’minlash va havo-dengiz aloqa yo‘llarini ochiq saqlash;*
3. *Iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish va dunyoda davlat dolzarbligini saqlash.*

Tashqi siyosatning asosiy tamoyillari quyidagilar: *qoidalarga asoslangan ko‘p tomonlama tizimni qo‘llab-quvvatlash, xalqaro huquq ustunligi (BMT Nizomi tamoyillari: kuch ishlatmaslik, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish, ichki ishlariga aralashmaslik), ASEAN markaziy o‘rni va kichik davlatlar uchun do‘stlar doirasini yaratish (Forum of Small States – FOSS)*. Singapur katta va kichik davlatlar bilan teng huquqli, konstruktiv munosabatlarni rivojlantiradi, “bizni sotib olish yoki qo‘rqitish mumkin emas” tamoyiliga amal qiladi. Ushbuu yondashuv Li Kuan Yu va S. Rajaratnam kabi asoschilar tomonidan shakllantirilgan bo‘lib, “dunyoni biz xohlagandek emas, balki bor holicha qabul qilish” pragmatizmini aks ettiradi.[1]

1 https://www.sg101.gov.sg/foreign-policy/ourfundamentals/

Singapur kichik davlat sifatida xalqaro maydonda o‘ziga xos diplomatik strategiyani shakllantirgan bo‘lib, u kichik davlatlarning umumiy manfaatlarini ilgari surishga qaratilgan tashabbuslarni faol qo‘llab-quvvatlaydi. Xususan, ekologik va iqtisodiy zaifliklar kabi umumiy muammolarni hisobga olib, Singapur kichik davlatlar uchun BMT doirasida o‘z ovozini kuchaytiruvchi platformalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi. 1992-yilda Singapur Barbados va Kabo Verde bilan birgalikda Nyu-Yorkda norasmiy va mafkuradan xoli tuzilma “Kichik davlatlar forumi” (Forum of Small States, FOSS) ni tashkil etdi. Hozirda 108 davlatni birlashtirgan ushbu forum yil davomida bir necha bor yig‘ilib, kichik davlatlar oldida turgan dolzarb masalalarni muhokama qiladi. Bundan tashqari, 2009-yilda Singapur “Global boshqaruv guruhi” (Global Governance Group, 3G) ni tashkil etib, G20 jarayonlarida shaffoflik va inklyuzivlikni ta’minlash, shuningdek, G20 va kengroq BMT a’zolari o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlashga hissa qo‘shmoqda.[2]

Shuningdek, Singapur kichik davlatlar o‘rtasida hamkorlikni chuqurlashtirish maqsadida turli amaliy dasturlarni yo‘lga qo‘ygan. Jumladan, 2015-yilda ishga tushirilgan FOSS stipendiya dasturi orqali diplomatik vakillar Singapurga taklif etilib, tajriba almashish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. 2022-yilda FOSSning 30 yilligi munosabati bilan “FOSS for Good” texnik ko‘mak paketi joriy etilib, COVID-19dan tiklanish va raqamli transformatsiya kabi yo‘nalishlarda tajriba almashinuvi yo‘lga qo‘yildi. Bundan tashqari, 2023-yilda FOSS doirasida 55 davlatni birlashtirgan “Kichik davlatlar guruhi” (Small States Group) tashkil etilib, global muzokaralarda muvozanatli pozitsiyalarni ilgari surish maqsad qilingan. Singapur, shuningdek, Kichik orol davlatlari alyansi (Alliance of Small Island States) va Kichik rivojlanayotgan orol davlatlar (Small Island Developing States) bilan ham faol hamkorlik qilib, o‘zining Singapur hamkorlik dasturi orqali

2 https://www.jom.media/the-past-and-future-of-singapores-foreign-policy/

barqaror rivojlanish, iqlim o‘zgarishi va raqamlashtirish sohalarida maxsus o‘quv va texnik yordam dasturlarini amalga oshirmoqda.

Singapur Tashqi ishlar vazirligi (TIV) 1965-yil 9-avgustda tashkil etilgan bo‘lib, davlat boshqaruvining muhim qismi hisoblanadi. TIV 11 ta siyosiy-iqtisodiy direktorat va 7 ta protokol, konsullik va hamkorlik bo‘yicha direktoratdan iborat. Protokol direktorati hujjatlarni taqdim etish, davlat tashriflari, bayroq va o‘tirish tartibi kabi masalalarni boshqaradi. 2007-yilda tashkil etilgan Diplomatik Akademiya esa chet el xizmati xodimlarini tayyorlaydi.

Kichik davlat uchun diplomatik xizmat va protokol davlat boshqaruvining asosiy vositasi sifatida suverenitetni himoya qilish, tinch mintaqaviy muhitni ta’minlash va xalqaro maydonda dolzarblikni saqlashga xizmat qiladi. TIV ning vazifasi Singapur manfaatlarini himoya qilish, siyosiy va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish hamda fuqarolarni xorijda qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Protokol esa tenglik va hurmat tamoyillarini amalda qo‘llab, ishonchni mustahkamlaydi. Bu Singapur kabi davlat uchun strategik zaruriyat, chunki u “kichik qizil nuqta” (little red dot) sifatida katta kuchlar o‘rtasida muvozanatni saqlaydi.[3]

Diplomatik xizmat, protokol va etiketning huquqiy asosi bo‘lmish “Diplomatik and Konsullik munosabatlari to‘g‘risida”gi Aktda Vena konvensiyalari milliy qonunchilikka moslashtirilgan.

Tashqi ishlar vazirligi strukturasi va faoliyati

Singapur Respublikasining diplomatik tizimi mamlakat mustaqilligi bilan bevosita bog‘liq holda shakllandi. Tashqi ishlar vazirligi 1965-yil 9-avgustda, ya’ni Singapur mustaqillikka erishgan kuni tashkil etilgan bo‘lib, uning birinchi rahbari etib S. Rajaratnam tayinlandi. Vazirlik tashkil etilishi bilan Singapur qisqa vaqt ichida xalqaro maydonda faol diplomatik siyosat yurita boshladi: 1965-yilning o‘zida BMTga a’zo bo‘ldi, keyin esa Britaniya millatlar hamdo‘stligi, Xalqaro

3 https://www.channelnewsasia.com/commentary/iran-war-middle-east-energy-singapore-foreign-policy-5983831

valyuta jamg‘armasi va Jahon banki kabi muhim xalqaro institutlarga qo‘shildi. 1967-yilda esa Singapur ASEANning asoschilaridan biri sifatida mintaqaviy diplomatiyada muhim o‘rin egalladi. Shu tariqa, Tashqi ishlar vazirligi qisqa muddat ichida davlatning xalqaro huquq subyekti sifatida tan olinishi va global tizimga integratsiyalashuvini ta’minlagan asosiy institutga aylandi.

Keyingi bosqichlarda vazirlik faoliyati izchil rivojlanib, Singapurning ko‘p vektorli va pragmatik diplomatiyasini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. 1970-1990-yillarda mamlakat Qo‘shilmaslik harakati a’zosiga aylandi, APEC hamda boshqa ko‘plab mintaqaviy tuzilmalar bilan hamkorlikni kengaytirdi. 1990-yillardan boshlab esa vazirlik tashabbusi bilan xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish dasturlari, jumladan Singapur hamkorlik dasturi yo‘lga qo‘yildi. Hozirgi kunda TIV dunyoning 150 dan ortiq davlati bilan diplomatik aloqalarni yuritadi hamda 50 ga yaqin xorijiy diplomatik vakolatxonalar orqali faoliyat olib boradi. Vazirlik tuzilmasi siyosiy, iqtisodiy, konsullik va protokol yo‘nalishlarini qamrab oluvchi ko‘plab direktoratlardan iborat bo‘lib, u zamonaviy global diplomatiya talablariga mos ravishda rivojlanib bormoqda.[4]

Vazirlik hozirgi kunda 50 ta xorijdagi diplomatik vakolatxonaga ega bo‘lib, ular tarkibiga 7 ta oliy komissarlik, 21 ta elchixona, BMT huzuridagi 4 ta doimiy vakolatxona hamda 17 ta konsullik kiradi. Bundan tashqari, Singapurning xorijda 31 nafar faxriy, bosh konsul va konsullari faoliyat yuritmoqda. Mamlakatning o‘zida 46 nafar norezident elchi va yuqori komissarlar faoliyat yuritadi. Singapur 188 ta davlat bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan. Singapurning o‘zida 70 ta xorijiy elchixona va oliy komissarlik, 43 ta xorijiy konsullik hamda 11 ta xalqaro tashkilot faoliyat yuritadi. Bundan tashqari, 60 dan ortiq norezident xorijiy elchilar Singapurda akkreditatsiyadan o‘tgan.

Hozirgi vaqtda vazirlik tuzilmasi 11 ta siyosiy va iqtisodiy masalalar bilan shug‘ullanuvchi direktoratlardan hamda protokol, konsullik masalalari va Singapur

4 https://www.mfa.gov.sg/about-mfa/histories-and-milestones/

hamkorlik dasturi (SHD) kabi yo‘nalishlarni qamrab oluvchi 7 ta direktoratdan iborat. Korporativ ishlar direktorati tashkilot va resurslarning boshqarilishni nazorat qiladi, Inson resurslari direktorati hamda Diplomatik akademiya esa kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish bilan shug‘ullanadi.

Singapur Respublikasida diplomatik kadrlarni tayyorlash tizimi markazlashgan va institutsional asosga ega bo‘lib, bunda asosiy rolni TIV tarkibidagi Diplomatik Akademiya bajaradi. Ushbu akademiya 2007-yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy vazifasi diplomatlar va davlat xizmatchilarining kasbiy salohiyatini oshirish, zamonaviy diplomatiya, muzokaralar olib borish, xalqaro huquq va mintaqaviy tadqiqotlar bo‘yicha chuqur bilim berishdan iborat. Akademiya nafaqat yangi ish boshlayotgan diplomatlar uchun, balki tajribali kadrlar uchun ham malaka oshirish kurslarini tashkil etadi. O‘quv dasturlari amaliy yo‘naltirilgan bo‘lib, unda real diplomatik vaziyatlar, strategik tahlil, siyosiy



prognozlash va inqiroz boshqaruvi kabi yo‘nalishlar qamrab olinadi. Shu orqali Singapur kichik davlat bo‘lishiga qaramay, yuqori malakali va raqobatbardosh diplomatik korpusni shakllantirishga erishgan.

1-rasm. Diplomatik Akademiyaning tarkibiy dasturlari

Diplomatik karyera tizimi Singapurda meritokratiya tamoyiliga asoslangan bo‘lib, nomzodlar qat’iy tanlov va tayyorgarlik jarayonidan o‘tadi. Dastlabki bosqichda ular siyosiy tahlil, iqtisodiy diplomatiya va konsullik xizmatlari bo‘yicha tayyorlanadi, keyinchalik esa xorijdagi diplomatik vakolatxonalarda amaliy faoliyat olib boradi. TIV ma’lumotlariga ko‘ra, diplomatik xizmat

davomida xodimlar turli direktoratlarda rotatsiya asosida ishlash orqali universal malaka va ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, Singapur diplomatik tayyorgarlik tizimi xalqaro hamkorlikka ham ochiq bo‘lib, boshqa davlatlar diplomatlari uchun ham trening dasturlari taklif etiladi. Bu yondashuv Singapurning global diplomatiyadagi nufuzini oshirish va bilim almashuvini kengaytirishga xizmat qiladi.[5]

Singapur Respublikasida diplomatik protokolning xususiyatlari va asosiy tamoyillari

Singapurda diplomatik protokol va etiket xalqaro huquq normalari (Vena konvensiyalari) va milliy qonunchilikning uyg‘unligiga asoslanadi. Protokol – bu davlatlar o‘rtasidagi rasmiy munosabatlarni tartibga soluvchi qat’iy qoidalar, etiket esa – hurmat, madaniy sezgirlik va amaliy xulq-atvor qoidalari tizimi hisoblanadi. Singapur kichik davlat sifatida protokolni pragmatik va resiprosiya (o‘zaro tenglik) tamoyiliga qat’iy rioya qilgan holda qo‘llaydi. Asosiy qonunchilik manbasi “Diplomatik and Konsullik munosabatlari to‘g‘risida”gi Akt (2005) Singapurda diplomatik va konsullik imtiyozlari, immunitetlari va protokol masalalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga soladi. Ushbu Qonunning 6-moddasida belgilangan imtiyoz va immunitetlar yuzasidan Vazir boshqa bir davlatda Singapur diplomatik vakolatxonasi, konsullik muassasasi yoki ular bilan bog‘liq shaxslarga berilgan imtiyoz va immunitetlar o‘sha davlatning Singapurdagi diplomatik vakolatxonasi yoki unga aloqador shaxslarga berilgan imtiyoz va immunitetlardan kam deb hisoblasa, “Gazette”da e’lon qilinadigan buyruq orqali mazkur davlat vakolatxonasi yoki unga aloqador shaxslarga berilgan imtiyoz va immunitetlarning barchasini yoki bir qismini bekor qilishi mumkin.[6]

5 Ministry of Foreign Affairs Singapore. *Diplomatic Academy of Singapore* [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: https://www.mfa.gov.sg/About-MFA/Dip-Academy

6 Diplomatic and Consular Relations Act 2005 (2020 Revised Edition) [Elektron resurs]. – Singapore Statutes Online. – Kirish rejimi: https://sso.agc.gov.sg

Davlat tashriflarini tashkil etish. Singapur Respublikasida davlat tashriflari yuqori darajada tartibga solingan protokol asosida amalga oshiriladi va bunda asosiy koordinatsiya vazifasini TIV Protokol direktorati bajaradi. Davlat tashrifi odatda rasmiy taklif yuborish, tashrif dasturini kelishish, delegatsiya tarkibini aniqlash hamda xavfsizlik va logistika choralarini rejalashtirish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Tashrif davomida davlat rahbarlarini kutib olish marosimi, faxriy qorovul saf tortishi, rasmiy muzokaralar, davlat ziyofatlari va matbuot anjumanlari qat’iy protokol qoidalariga muvofiq tashkil etiladi. Ushbu jarayonlarda xalqaro amaliyotda qabul qilingan normalar, xususan Vena konvensiyalari tamoyillari ham hisobga olinadi. Singapur protokol amaliyotining o‘ziga xos jihati uning aniqligi, vaqtga qat’iy rioya qilinishi va marosimlarning yuqori darajada soddalashtirilgan, lekin mazmunan samarali tashkil etilishidir.

Diplomatik akkreditatsiya tartibi. Singapurda diplomatik vakillarni akkreditatsiya qilish tartibi xalqaro huquq me’yorlariga asoslangan holda amalga oshiriladi. Elchi tayinlash jarayoni avvalo qabul qiluvchi davlatdan agreman (rozilik) olish bilan boshlanadi, shundan so‘ng diplomat Singapurga kelib, davlat rahbariga ishonch yorliqlarini topshiradi. Ushbu tartib Vena konvensiyasi normalariga muvofiq bo‘lib, diplomatik vakilning rasmiy maqomini belgilaydi. Akkreditatsiya jarayonini amaliy jihatdan TIV tarkibidagi Protokol direktorati nazorat qiladi. Bundan tashqari, Singapurda norezident elchilar instituti ham keng qo‘llanilib, ular mamlakat hududida doimiy yashamasdan turib ham akkreditatsiyadan o‘tishi mumkin. Bu tizim Singapurning ochiq va moslashuvchan diplomatik siyosatini aks ettiradi.

Diplomatik imtiyoz va immunitetlar. Singapur Respublikasida diplomatik imtiyoz va immunitetlar xalqaro huquq va milliy qonunchilik uyg‘unligi asosida tartibga solinadi. Asosiy huquqiy manba sifatida Diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi xizmat qiladi, uning qoidalari esa “Diplomatik and Konsullik munosabatlari to‘g‘risida”gi Akt orqali milliy tizimga implementatsiya

qilingan. Ushbu hujjatlarga ko‘ra, diplomatik vakolatxonalar daxlsizligi, diplomatlarning shaxsiy immuniteti, soliq va bojxona imtiyozlari kafolatlanadi. Shu bilan birga, Singapur qonunchiligida o‘zaro tenglik tamoyili mustahkamlangan bo‘lib, boshqa davlatlar tomonidan Singapur vakillariga beriladigan imtiyozlar darajasiga qarab mos choralar ko‘rilishi mumkin. Bu esa diplomatik munosabatlarda muvozanatni ta’minlash va milliy manfaatlarni himoya qilishning muhim vositasi hisoblanadi.

Rasmiy uchrashuvlar protokoli. Singapur Respublikasida rasmiy uchrashuvlar yuqori darajada markazlashgan tartibda, TIV tarkibidagi Protokol direktorati rahbarligida tashkil etiladi. Xorijiy davlat rahbarlarining tashriflari odatda Prezident saroyi Istanada tantanali kutib olish marosimi bilan boshlanadi: faxriy qorovul saf tortadi, davlat madhiyalari ijro etiladi va rasmiy salomlashuv amalga oshiriladi. Keyingi bosqichda mehmon Prezident va Bosh vazir bilan muzokaralar o‘tkazadi. Protokol qoidalariga ko‘ra, bayroq chap tomonda hurmat pozitsiyasida turishi, o‘tirish tartibi, nutq so‘zlash ketma-ketligi hamda tarjima xizmati qat’iy belgilangan. Uchrashuvlar yakunida qo‘shma matbuot anjumani va rasmiy tushlik yoki kechki ovqat tashkil etilib, bu jarayonlar diplomatik tenglik, o‘zaro hurmat va aniq vaqt rejimiga rioya qilish tamoyillari asosida olib boriladi.

Davlat marosimlari va qabul marosimlari. Singapurda davlat marosimlari Prezidentning konstitutsiyaviy vakolatlari doirasida o‘tkazilib, ular mamlakatning diplomatik nufuzini aks ettiruvchi muhim protokol vositasi hisoblanadi. Xususan, davlat tashriflari vaqtida tantanali kutib olish marosimlari, rasmiy davlat ziyofatlari va yuqori darajadagi qabullar tashkil etiladi. Diplomatik korpus bilan ishlashda muhim elementlardan biri xorijiy elchilar va yuqori komissarlarning Prezidentga ishonch yorliqlarini topshirish marosimi bo‘lib, u Vena konvensiyasida belgilangan akkreditatsiya tartibiga mos ravishda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, 1985-yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan Prezidentning Yillik diplomatik qabul marosimi Singapur diplomatik hayotining muhim an’analaridan biri bo‘lib,

unda 300 ga yaqin mehmon, 100 ga yaqin elchilar, diplomatik vakillar, xalqaro tashkilotlar rahbarlari ishtirok etadi.[7]

Kiyinish tartibi. Singapur diplomatik protokolida kiyinish tartibi mamlakat iqlimi, ko‘p madaniyatli tarkibi va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqaviy an’analarining uyg‘unlashuvini aks ettiradi. Xalqaro diplomatik amaliyotda umume’tirof etilgan kiyinish darajalari Singapurda ham qo‘llaniladi. Biroq mahalliy iqlim va madaniy xususiyatlar tufayli ushbu standartlar moslashtirilgan holda tatbiq etiladi.

Rasmiy tadbirlar uchun kiyinish darajalari. Davlat ziyofatlari va Prezident qabullarida erkaklar uchun to‘q rangli kostyum hamda galstuk, ayollar uchun esa maxsus kechki ko‘ylak yoki professional kiyim talab etiladi. Diplomatik kiyinish tartibi erkaklar uchun odatda to‘q rangli kostyum, oq yoki och rangli ko‘ylak va konservativ galstukdan iborat bo‘lib, ayollar esa neytral ranglardagi kostyumlar yoki maxsus ko‘ylaklar kiyadi. Singapurda tropik iqlim sababli kostyumlar yengil matolardan (kanvas, jun-ipak aralashmalari) tayyorlanishi tavsiya etiladi.[8]

Milliy kiyim va batik diplomatiasi. Batik Singapurda milliy kiyim maqomiga ega bo‘lib, kunduzgi rasmiy tadbirlarda biznes-kostyum o‘rnida, kechki tadbirlarda esa smoking o‘rnida qo'llanilishi mumkin. Hozirgi kunda batik Singapur, Malayziya, Indoneziya va boshqa ASEAN davlatlarida rasmiy marosimlarda keng qo‘llanilmoqda. Mintaqaviy sammitlarda singapurlik rahbarlarning batikdagi naqsh tanlovi “xavfsiz va nafis” gul va geometrik shakllardan iborat bo‘lib, bu hurmat, madaniy savodxonlik va mintaqaviy hamjihatlik xabarini anglatadi.[9]

---

7 Ministry of Foreign Affairs Singapore. President’s Annual Diplomatic Reception, 11 July 2019. https://www.mfa.gov.sg/newsroom/press-statements-transcripts-and-photos/padr-reception-11-jul-2019/

8 Wenyuan Clothing. Mastering the Diplomatic Dress Code: A Guide to Professional Elegance in International Affairs [Elektron resurs]. – 2025. – Murojaat sanasi: 19.03.2026. – URL: https://wenyuan-clothing.com/en/articles/18840

9 Deployant. Batik, a practical guide to comfortable formalwear in very warm weather [Elektron resurs]. – 2023. – Murojaat sanasi: 19.03.2026. – URL: https://deployant.com/tgifriday-batik-a-practical-guide-to-comfortable-formalwear-in-very-warm-weather/

Ayollar uchun kiyinish qoidalari. Singapurlik va xorijiy diplomatik xodim ayollar uchun sarong-kebaya ayollarning an'anaviy kiyimi bo'lib, u batik yubka va bluzkadan iborat holda rasmiy tadbirlarda milliy kiyim sifatida maqbul hisoblanadi. Hind ayollari uchun sari va salvar-kameez kabi milliy kiyimlar ham qabul etiladi.[10]

Marosim va tadbirlarda ustuvorlik tartibi. Singapurda Ustuvorlik tartibi 1967-yilda belgilangan rasmiy iyerarxiya bo'lib, huquqiy kuchga ega bo'lmasa-da, milliy tadbirlar va davlat marosimlarida tantanali protokolni belgilaydi. Ro'yxat Prezident (1-o'rin), Bosh vazir (2-o'rin), sobiq Bosh vazir (3), Bosh vazir o'rinbosari, Bosh sudya, Parlament spikeri, sobiq Prezidentlar, kabinet vazirlari, Oliy sud sudyalari va Parlament a'zolari tartibida tuzilgan bo'lib, xorijiy elchilar va oliy komissarlar 10-o'rinda joylashgan.[11] TIV Protokol direktorati va Istana saroyi bu iyerarxiyani boshqargan holda o'tirish joylari, kelish tartibi va nutq berish ketma-ketligini aniq belgilaydi.

Diplomatik korpusning protokol maqomi. TIV tomonidan chiqariladigan Diplomatik va konsullik ro'yxatida (2026-yil yanvar holatiga) da alohida "Diplomatik korpusdagi ustuvorlik tartibi" bo'limida belgilangan. Tartib Prezidentga ishonch maktublarini taqdim etish sanasi bo'yicha (Vena Diplomatik konvensiyasi 16-moddasi) tuziladi. TIV Protokol direktorati va Istana bu ro'yxatni boshqarib, qabullar, davlat tashriflari va tantanalarda xorijiy diplomatlar o'rnini aniq belgilaydi. Bu tizim o'zao tenglik tamoyiliga asoslanib, diplomatik korpusning hurmatini ta'minlaydi va Singapurning ochiq diplomatiya siyosatini aks ettiradi.

Singapur Respublikasida diplomatik etiket qoidalari

Singapur diplomatik xizmati etiket an'analarida milliy madaniyat omillari Sharqiy Osiyo diplomatik an'analari, Konfutsiy madaniyatining ta'siri va

10 Holidify. 5 Traditional Dresses of Singapore [Elektron resurs]. – 2023. – Murojaat sanasi: 19.03.2026. – URL: https://www.holidify.com/pages/traditional-dress-of-singapore-2545.html
11 https://en.wikipedia.org/wiki/Order_of_precedence_in_Singapore

multietnik jamiyat omilining uyg‘unlashuvidan iborat bo‘lib, bu elementlar davlatning pragmatik, hurmatga asoslangan va inklyuziv tashqi siyosatini shakllantiradi. Konfutsiy madaniyatining ta’siri Li Kuan Yu davridan boshlab “Milliy qadriyatlar” (jamiyat va millatning shaxsdan ustunligi, oila – jamiyatning asosiy birligi, ziddiyat emas consensus tamoyillari) siyosati orqali kuchaygan bo‘lib, ren (mehribonlik) va li (tartib) qoidalari orqali diplomatiyada hamkorlik, barqarorlik va pragmatizm ta’kidlangan. Multietnik jamiyat omili (xitoylar 76 %, malaylar, hindlar va boshqalar) Singapur diplomatiyasini yanada moslashuvchan qiladi, chunki xitoyliklar Konfutsiy merosini saqlab, malay va hind an’analari bilan uyg‘unlashib, irqiy va diniy hamjihatlikni ta’minlaydi. Natijada xorijiy missiyalarda madaniy sezgirlik, sovg‘a berish va salomlashuv qoidalari har bir etnik guruhga moslashtiriladi va milliy identifikatsiya “umumiy taqdir” tamoyili asosida mustahkamlanadi. Ushbu uch omil birgalikda Singapur diplomatiyasini Sharqiy Osiyo ildizlari bilan global pragmatizmni birlashtirgan noyob, samarali modelga aylantirib, xalqaro hamkorlikda hurmat, konsensus va inklyuzivlikni ta’minlaydi.[12]

Singapur diplomatik muloqot madaniyati xalqaro standartlar va mahalliy ko‘p millatli an’analarni uyg‘unlashtirgan holda amalga oshiriladi. Rasmiy uchrashuvlarda qo‘l siqish bilan ozgina egilish majburiy bo‘lib, biznes va diplomatik suhbatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri va aniq fikr bildirish tavsiya etiladi. Ammo yuzni saqlash uchun bilvosita ifoda va sukut ishlatiladi. Barmoq bilan ishora qilish, kaftga musht urish yoki oyoq tagini ko‘rsatish kabi noverbal signallar qat’iy taqiqlangan.[13]

Diplomatik nutq va yozishmalar etikasi. Diplomatik nutq va yozishmalar etikasi Singapurda rasmiy ingliz tilida, qat’iy iyerarxiya va unvonlarga rioya qilgan

12 Tan, C. ‘Our shared values’ in Singapore: A Confucian perspective [Elektron resurs] // Repository NIE. – URL: https://repository.nie.edu.sg/server/api/core/bitstreams/8404d3d7-99b6-4fe8-b3d1-73f3910723c1/content

13 Cultural Etiquette – Singapore [Elektron resurs] // eDiplomat. URL:http://www.ediplomat.com/np/cultural_etiquette/ce_sg.htm

holda olib boriladi. Rasmiy xatlar va nutqlarda aniq, qisqa va hurmat uslubida yoziladi, biznes kartalari ikki qo‘l bilan almashinadi, kechikish taqiqlanadi va va’da qilingan hujjatlar muddatida yetkazilishi shart. Suhbatlarda baland ovoz va emotsional ifoda rad etilgan holda savollarga javob berishda 10-15 soniya sukut saqlanadi.

Rasmiy ovqatlanish marosimi. Singapurda rasmiy ovqatlar va qabul marosimlari Istana saroyida o‘tkaziladi. Davlat tashriflari uchun mahalliy yetishtirilgan mahsulotlardan tayyorlangan bufet va hauker taomlari (popiah, prawn lag‘mon, roti john, halal variantlar) taklif etilib, o‘tirish tartibi Ustuvorlik tartibi bo‘yicha (Prezident va Bosh vazir birinchi), Singapur bayrog‘i hurmat pozitsiyasida (chap tomonda) joylashtiriladi. Ovqat boshlanishi va tugashi mezbon signaliga bog‘liq bo‘lib, tostlar va nutqlar qat’iy tartibda so‘zlanadi va multietnik hurmat ta’minlanadi.

Mehmonlarni kutib olish qoidalari. Singapurda qat’iy protokolga asoslangan holda Istana yoki TIV tadbirlarida qattiq qo‘l siqish bilan ozgina egilish majburiy hisoblangan holda eng keksa yoki yuqori statusli shaxs birinchi salomlashadi. Xitoyliklar yengil ushlab uzoqroq siqishadi, malaylar yumshoq qo‘l siqish va qo‘lni yurakka bosish orqali, hindlar bo‘lsa bir jinsdagi vakillar bilan qo‘l siqish yoki bosh egish orqali salomlashadi. Ayollar qo‘lini birinchi uzatadi, hurmat tartibi bo‘yicha tanishtiriladi.

Diplomatik sovg‘alar. Singapur diplomatik amaliyotida sovg‘alar almashinuvi qat’iy tartibga solingan bo‘lib, u ramziy va protokol xarakteriga ega. Sovg‘alar odatda milliy madaniyatni aks ettiruvchi, ortiqcha moddiy qiymatga ega bo‘lmagan predmetlardan iborat bo‘ladi; masalan, Singapurda xorijiy mehmonlar sharafiga yangi orkid gibridiga (Orkid diplomatiyasi) ularning nomini berish keng tarqalgan diplomatik ramz hisoblanadi. Shu bilan birga, davlat xizmatchilari va vazirlar uchun qat’iy etik va huquqiy cheklovlar mavjud: 50 SGD=$40 dan yuqori sovg‘alar davlatga topshiriladi yoki ularning bozor qiymati to‘lanadi; naqd pul

shaklidagi sovg‘alar esa qat’iyan taqiqlanadi. Bu qoidalar korrupsiyaning oldini olish, davlat boshqaruvida shaffoflikni ta’minlash va diplomatik munosabatlarda o‘zaro hurmat muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Singapur Respublikasining diplomatik xizmat, protokol va etiket tizimi – kichik davlatning ulkan strategik salohiyatini namoyon etuvchi noyob modeldir. 1965-yilda mustaqillikka erishgandan buyon Singapur cheklangan geografik o‘lchamiga va tabiiy resurslari yo‘qligiga qaramay, yuqori samarali diplomatiya orqali global o‘yinchiga aylandi. Bu yutuqning asosida uch omil yotadi: institutsional mustahkamlik, meritokratik kadrlar tizimi va protokolga pragmatik yondashuv.

Tashqi ishlar vazirligi o‘z faoliyati davomida 188 ta davlat bilan diplomatik aloqalar o‘rnatdi, 50 ga yaqin xorijiy vakolatxona ochdi va xalqaro tashkilotlarda faol ishtirok etish orqali Singapurning ovozini jahon maydonida yangrashiga erishdi. FOSS, 3G kabi platformalar orqali kichik davlatlar manfaatlarini himoya qilish borasidagi tashabbuskorlik esa Singapurni nafaqat o‘z manfaatlarini ko‘zlovchi, balki global boshqaruvga munosib hissa qo‘shuvchi davlat sifatida tan oldirdi.

Diplomatik protokol sohasida Singapur Vena konvensiyalari tamoyillarini milliy qonunchilikka mahorat bilan implementatsiya qildi. Protokol direktoratining samarali ishlashi, davlat tashriflarini yuqori darajada tashkil etish va akkreditatsiya jarayonining shaffof va tartibli amalga oshirilishi – bularning barchasi davlatning xalqaro nufuzini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Etiket sohasida esa Singapur o‘ziga xos modelni yaratdi: konfutsiy qadriyatlari, multietnik an’analar va zamonaviy diplomatik standartlar bir-birini to‘ldiradi. Kiyinish tartibidan tortib sovg‘alar almashinuvigacha bo‘lgan har bir detal madaniy sezgirlik, o‘zaro hurmat va axloqiy yuksak standartlarni aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, Singapur tajribasi shuni ko‘rsatadiki, diplomatik xizmat samaradorligi davlat o‘lchamiga emas, balki institutsional quvvat, kadrlar sifati va protokolga bo‘lgan munosabatning chuqurligiga bog‘liq. Ushbu model, ayniqsa, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun foydali bo‘lishi mumkin: to‘g‘ri tashkil etilgan diplomatiya – bu mamlakatning jahondagi eng kuchli strategik qurollaridan biridir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://www.sg101.gov.sg/foreign-policy/ourfundamentals/
2. https://www.jom.media/the-past-and-future-of-singapores-foreign-policy/
3. https://www.channelnewsasia.com/commentary/iran-war-middle-east-energy-singapore-foreign-policy-5983831
4. https://www.mfa.gov.sg/about-mfa/histories-and-milestones/
5. Ministry of Foreign Affairs Singapore. *Diplomatic Academy of Singapore* https://www.mfa.gov.sg/About-MFA/Dip-Academy
6. Diplomatic and Consular Relations Act 2005. – Singapore Statutes Online. – Kirish rejimi: https://sso.agc.gov.sg
7. Ministry of Foreign Affairs Singapore. President’s Annual Diplomatic Reception, 11 July 2019. https://www.mfa.gov.sg/newsroom/press-statements-transcripts-and-photos/padr-reception-11-jul-2019/
8. Wenyuan Clothing. Mastering the Diplomatic Dress Code: A Guide to Professional Elegance in International Affairs. – 2025. – Murojaat sanasi: 19.03.2026. – URL: https://wenyuan-clothing.com/en/articles/18840
9. Deployant. Batik, a practical guide to comfortable formalwear in very warm weather. – 2023. – URL: https://deployant.com/tgifriday-batik-a-practical-guide-to-comfortable-formalwear-in-very-warm-weather/

10. Holidify. 5 Traditional Dresses of Singapore. – 2023. – Murojaat sanasi: 19.03.2026. – URL: https://www.holidify.com/pages/traditional-dress-of-singapore-2545.html

11. https://en.wikipedia.org/wiki/Order_of_precedence_in_Singapore

12. Tan, C. 'Our shared values' in Singapore: A Confucian perspective // Repository NIE. – URL:

https://repository.nie.edu.sg/server/api/core/bitstreams/8404d3d7-99b6-4fe8-b3d1-73f3910723c1/content

13. Cultural Etiquette – Singapore // eDiplomat.

URL:http://www.ediplomat.com/np/cultural_etiquette/ce_sg.htm